

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING YOZUVSIZ XARITALAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Davlatova Dilshoda Jo‘raqul Qizi

ChDPU Geografiya kafedrasi 2-bosqich magistranti

Annotation:

Maqlada yozuvsiz xaritalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, ularga qo‘yilgan talablar, yozuvsiz xaritalar bilan ishlashga oid taklif va tavsiyalar, ular yordamida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash, o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kartografik texnologiyalar, yozuv siz xarita, pedagogik texnologiya, kompetensiya, shartli belgi, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor berilmoqda. Geografiya fanini o‘rganishda xaritalar katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z navbatida barcha geografik tadqiqotlar ham xaritalar vositasida amalga oshiriladi. Xarita geografiya o‘rganadigan barcha predmet va hodisalar haqida hikoya qiladi, xaritalar geografik ma’lumotlarni tez, aniq va lo‘nda qilib hikoya qilishda geografiya darsliklariga tenglashtiriladi. Geografiya sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqotlar ham xaritalar bilan bog‘liq ravishda bajariladi.

Geografiya ta’limining mazmunli va qiziqarli bo‘lishida hamda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda xaritalarning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lib, darslarda yuqori samaradorlikka erishish uchun matnli ma’lumotlar berish bilan birga muntazam ravishda turli mavzulardagi va masshtabdagi o‘quv xaritalari, atlaslar, globuslar, yozuv siz xaritalar bilan ishlash talab etiladi. Binobarin, o‘quvchilar turli geografik obyektlarning geografik o‘rmini bilmay turib, ular haqidagi ma’lumotlarni ongli holda o‘zlashtira olmaydilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni yangi geografik obyektlar bilan tanishtirish jarayonida ularni devoriy xaritadan ko‘rsatib, bu obyektlarni atlas yoki darslik xaritasidan topishni va ularning geografik o‘rmini tahlil qilishni o‘rgatishi maqsadga muvofiqdir.

Geografik bilimlarni egallashda geografiya darslarida yozuv siz xaritalar bilan ishslash muhim o‘rin tutadi. Ular geografiya ta’limining barcha shakllarida qo‘llanilishi mumkin. Yozuv siz xaritalar bilan ishslash geografik nomlarni o‘quvchilar tomonidan yaxshi eslab qolishga imkon beradi.

Yozuv siz xaritalar bilan ishslash samarali bo‘lishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi lozim:



- xaritaning nomi yirik harflarda uning yuqori qismida yoziladi;
- o‘quvchining ismi, sharifi va guruhi xaritaning quyi o‘ng qismiga yoziladi (mayda harflar bilan);
- geografik borliq nomlari bosh harflar bilan yoziladi;
- daryo, tog‘ tizmalari, qo‘ltiqlar va dengizlar nomi ularning yo‘nalishi bo‘yicha yoziladi;
- shaharlar, ko‘llar nomlari kengliklar bo‘yicha yoziladi;
- foydali qazilmalar, xalq xo‘jaligi tarmoqlari umum qabul qilingan shartli belgilar yordamida belgilanadi.

Auditoriya sharoitida yozuvzsiz xaritalar qalam bilan bo‘yaladi, uy sharoitida esa tush yoki siyoh bilan bo‘yaladi. Yozuvzsiz xaritalarni to‘ldirish devoriy xaritalar va atlasdagi xaritalar bilan ishslash birga uyg‘unlikda olib boriladi. O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida geografik borliqni devoriy xaritada ko‘rsatib ularni atlasdan topishni va yozuvzsiz xaritaga shartli belgilar bilan tushirishni tavsiya etadi. Xaritada geografik borliqni tushirish uchun mo‘ljal bo‘lib daraja to‘ri, daryolar, qirg‘oq chizig‘i, chegaralar hisoblanadi. Yozuvzsiz xarita bilan bajariladigan har bir yangi ish o‘qituvchi yordamida amalga oshirilishi zarur. O‘quvchilar yozuvzsiz xaritaga geografik borliqni tushirishni yaxshi o‘rganib olgandan so‘nggina ularga mustaqil ishslashga ruxsat berish mumkin.

Yozuvzsiz xaritaga tushiriladagan geografik nomlar soni chegaralangan bo‘lmog‘i lozim. Yozuvzsiz xarita bo‘yicha o‘quvchilarga murakkab bo‘lgan vazifalarni bermagan maql. Masalan, atlasdagi ma’lumotlarni chiziqli xaritaga tushirish. Yozuvzsiz xaritalarga faqat dasturda uchraydigan geografik nomlarni tushirish lozim. Yozuvzsiz xaritalar bilan ishslash ijodiy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i va o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi lozim.

Yozuvzsiz xarita bilan ishslash jarayonida quyidagi tavsiya qilinadi.

1. Yozuvzsiz xarita bilan ishslashni boshlashdan oldin diqqat bilan topshiriqni o‘qing. Nima aynan belgilangan bo‘lishi kerak ekanligini aniqlab oling.
2. Topshiriqlar o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan o‘quv materiallari, atlasi va boshqa axborot manbalari yordamida amalga oshiriladi.
3. Yozuvzsiz xaritani bajarish uchun zarur bo‘lgan oddiy va o‘tkir rangli qalam tayyorlash kerak.
4. Har qanday xarita yuqori tomonidan yozilgan nomga ega bo‘lishi kerak. Bu aniq va lo‘nda bo‘lishi va o‘rganilgan mavzuga mos bo‘lishi kerak.
5. Oriyentir olish uchun geografik xarita bilan yozuvzsiz xaritada tushirilgan hududlarni solishtiring. Asosiy tog‘ va daryolarini aniqlab oling.



6. Topshiriq bajarayotganda geografik obyektlarni qanday ketma-ketlikda kelishini oldindan o‘ylab ko‘ring, ular bir-birini yopmasligi va aralashib ketmasligi kerak.
7. Yozuvsız xaritaga qanaqa shartli belgilarni ishlatishtingizni aniqlab oling va xaritani belgilangan joyiga tushiring.
8. Yozuvsız xaritaga hamma shartli belgilarni (ranglar, belgilar, strelkalar va bosh..) maxsus joyga, ya’ni shartli belgilar joyiga tushirilishi lozim. Har bir shartli belgiga izoh bo‘lishi kerak.
9. Yozuvsız xaritaga nomlari uzun bo‘lgan geografik obyektlarni sonlar yoki harflar yordamida tushirsa bo‘ladi. Ularni izohini shartli belgilarda ko‘rsatish lozim.
10. Matnlar va geografik obyektlarning nomlari har doim o‘qiy oladigan bo‘lishi kerak. Daryolar, tog‘lar va shaharlar nomlari, aniq bosma harflar yordamida yozilishi kerak.
11. Relyef elementlari (tog‘lar, pasttekisliklar, jarlar) qora rangda, gidrografik elementlar (daryo, ko‘l, suv omborlar) ko‘k rangda yoziladi.
12. Faqat berilgan topshiriqni bajarish lozim. Ortiqcha axborotlarni xaritaga tushirishdan saqlaning. Ortiqcha axborotlarni tushirish xarita sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.
13. Topshiriqni turiga qarab oddiy qalam yoki rangli qalamlar bilan bo‘yash mumkin. Imkon qadar atlasida berilgan ranglarda bo‘yashga harakat qiling.
14. Geografik obyektlarni bo‘yashda faqat rangli qalamdan foydalaning. Flomaster va markerlardan foydalanmang!
15. Har bir relyef shakli o‘z rangiga ega, ya’ni balandlik va chuqurlik shkalasiga.
16. Geografik obyektlarni nomlarini yozuvsız xaritaga to‘g‘ri tushirish uchun daraja to‘riga e’tibor berish lozim. Geografik nomlar parallel bo‘yicha yoki meridiana yo‘nalishda yozilishi kerak.
17. Kichikroq geografik obyektlarni, misol uchun vulqon yoki tog‘ cho‘qqilari nomlarini parallel bo‘yicha obyektdan o‘ng tomonda yozilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.
18. Tog‘ va daryo nomlarini ularning yo‘nalishi bo‘yicha yozish kerak.
19. Hududlarni nomlari ularni chegarasidan chiqib ketmasligi lozim. Kichikroq hududlarni nomini son bilan ko‘rsatsa bo‘ladi. Misol uchun; shartli belgilarda 1-Sarez ko‘li deb yozilib qo‘yiladi.
20. Yodda tuting hududli obyektlarni, misol uchun tekislik yoki dengizni tushirayotganizda ularni chegaralarini belgilamang. Obyekt nomi ularni chegarasini ko‘rsatadi.



21. Shartli belgilarni tushirishda sistemasiga e'tibor bering. Atlasdagi qoidalarga rioya qiling.

22. Yozuv siz xaritani to'ldirishda bo'yoqlardan foydalanmang.

23. Yozuv siz xaritani tekshirishda o'qituvchi nafaqat uning to'griligiga balki ozodaligi va did bilan ishlanganligiga ham e'tibor beradi.

Yozuv siz xaritalar bilan quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

- Yozuv siz xaritalarga geografik borliq, hodisa va jarayonlarni nomlarini tushirish. Mazkur geografik nomlar o'quv qo'llanma matnida uchrashi mumkin, o'qituvchi dars jarayonida xaritadan ko'rsatgan bo'lishi mumkin, boshqa xaritalar bilan mustaqil ishslash aniqlangan bo'lishi mumkin;

- geografik (tabiiy va iqtisodiy) borliq va hodisalarning shartli belgilarini chiziqli xaritaga tushirish. Mazkur ish o'qituvchi yordamida bajariladi;

- o'qituvchining darsni gapirib berishi davomida chiziqli xaritalarni to'ldirish. Bunda o'quvchilar shartli belgilarni to'la o'zlashtirgan bo'lishlari shart;

- tog' tizmalarini, shamollarni, yo'llarni, oqimlarning yo'naliishlarini xarita sxemalarini tuzish;

- yozuv siz xaritaga iqlim elementlarini tushirish, yog'in miqdorini ranglar bilan, shamol yo'naliishini strelka bilan tasvirlash;

- yozuv siz xaritaga tuproq turlarini tushirish. Ko'proq materiklar tabiiy geografiyasini o'rghanishda qo'llaniladi;

- yozuv siz xaritaga foydali qazilmalarni tushirish. Bunda o'quvchilar foydali qazilmalarni shartli belgilarini yaxshi bilishi zarur;

O'quvchilarni yozuv siz xarita bilan ishslashini o'qituvchi muntazam ravishda nazorat qilib borishi zarur. Bajaradigan vazifalar muntazam baholanib bormog'i lozim. Yozuv siz xaritalar tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va siyosiy geografik yo'naliishda bo'ladi. O'quvchilar aynan mavzuga doir chiziqli xaritadan foydalanmog'i lozim, aks holda ularni chiziqli xaritalar bilan ishlashi qiyinlashadi va ular berilgan vazifani bajara olishmaydi.

Yozuv siz xaritalar bilan ishslash xaritani tushunishda va zarur ko'nikmalar hosil qilishda yozuv siz xaritalarning roli katta. Yozuv siz xaritadan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Yozuv siz xarita o'quvchilarda quyidagilarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega:

- egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashda.

- o'quvchilarda fazoviy tasavvurlar hosil qilishda va takomillashtirishda.

- kartografik shakl va belgilarni esda saqlab qolishda



- o‘quvchilarda diqqatni bir joyga jamlash, kuzatuvchanlik, fikrlash faolligini, nazariy bilimlarni tahlil qilish asosiy bilimlarni ajratib olish xislatlarini tarbiyalaydi. Yozuvsız xaritani to‘ldirishda esda saqlashning bir necha turlari qo‘llaniladi. (eshitish, ko‘rish, qo‘l bilan tushirish). Yozuvsız xaritani ishlashga kirishishdan oldin o‘quvchilar yo‘riqnomalar bilan tanishtirilishi lozim. Ishni avvalo chegaralarni ajratib olish, orol va yarim orollarni qora rangda, dengiz, bo‘g’iz, qo‘ltiqlar, daryo va ko‘llar ko‘k rangda, relyef shakllari yo‘nalishlari jiagar rang qalamda, aholi punktlari qizil rangda, shamollar, transport yo‘llari, oqimlar chiziqlar bilan beriladi. Yozuvsız xaritalardan amaliy va nazorat ish ishlarida ham foydalanish mumkin. Masalan:

A) shartli belgilar bilan foydali qazilmalar, sanoat markazlarini tushiring.

B) yirik sanoat rayonlarini tushiring.

V) shartli belgilar bilan qishloq xo‘jaligining ixtisosligini ajrating va xokazo.

Yozuvsız xarita asosida nazorat uyishtirish 10-15 minutdan oshmasligi kerak.

O‘qituvchi yozuvsız xaritalardan foydalanishni to‘rt guruhga ajratishi mumkin.

1. Yangi materialni o‘rganish jarayonida

2. Uy vazifalarini bajarishda.

3. O‘quvchilar bilimini tekshirish paytida.

4. Nazorat ishlarini o‘tkazishda.

O‘quvchilarning eng yaxshi ishlangan yozuvsız xaritalarini sinf maktab ko‘rgazmalarida namoyish qilish o‘quvchilarning geografiyani, xaritani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. – T.: “Nodirabegim” 2021. – 242 b.
2. Abdimurotov, O. U. Tabiiy geografiya kurslari amaliy mashg’ulotlarida xarita bilan ishslash metodikasini takomillashtirish. “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2020. 2-soni.
3. Shernayev A.U., Abdimurotov O.U., Olimova A.A. Geografiya darslarida xaritalar bilan ishslash tizimi // Pedagogik Mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 4-soni. – Buxoro, 2020. – B.195-198.